

- nostandard va sertifikatsiz gaz isitish asboblarini xarid qilmang va ulardan foydalanmang;



- nostandard va sertifikatsiz gaz isitish asboblarini xarid qilmang va ulardan foydalanmang;



- o'zboshimchalik bilan gaz maromlash punktlari (GRP) va gaz berkitgichlar (zadvishka)ga tegmang va ularga shikast yetkazmang;

- yer osti gaz quvurlari o'tgan joylarda shahar va tuman gaz filiali ruxsatisiz noqonuniy ravishda binolar qurmang;

- bino va inshootlarni qayta qurish davrida gaz jumraklari va gaz quvurlarini devor orasida qoldirmang yoki ustini g'isht va plastik materiallar bilan qoplamang;

Gaz asboblariga rezina shlang va shunga o'xhash qo'lbola vositalarni ulash va ochiq olovli gaz plitalaridan xonani isitish maqsadida foydalanish qat'iy man etiladi.

E'tiborsizlik oqibatida gazdan zaharlanish fojiali oqibatlarga olib kelishi, gaz isitish asboblaridan noto'g'ri foydalanish tufayli chiqqan yong'in esa insonlar o'limi hamda jamiyatga moddiy zarar yetkazishi mumkin.

Tabiiy gazlardan zaharlanish va gaz isitish asboblaridan xavfsizlik qoidalari ga rioya qilgan holda foydalanishga nafaqat mavsum davomida, balki butun umr davomida e'tibor qaratmog'imiz lozimdir.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalari ga rioya qilsangiz o'zingizni va oila a'zolaringizni gazdan zaharlanishdan va turli xil noxush hodisalardan saqlab qolgan bo'lasiz.

Gaz bilan bog'liq yong'in yoki zaharlanishlar sodir bo'lganda quyidagi shoshilinch telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilib, yordam so'rang.

101, 1050-qutqaruв xizmati

104-gaz avariysi

103-tez yordam



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRILIGI

**Aholi orasida
tabiiy va is gazidan
zaharlanishning oldini olish
bo'yicha**



Toshkent-2021

Hurmatli hamyurtlar keyingi paytlarda aholi orasida sodir bo‘layotgan tabiiy gazdan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar noxush oqibatlarga olib kelmoqda. Soha mutaxassislari tomonidan ushbu hodisalarning kelib chiqish sabablari o‘rganib chiqilganda, aholini gaz asboblaridan foydalanish qoidalariga rioya etmaganligi, bu borada malakaga ega emasligi natija-sida, ayniqsa yosh bolalarning tabiiy va is gazidan zaharlanishi hodisalari ro‘y berayotganligi kuzatilmoqda.

Gazdan zaharlanish bilan bog‘liq hodisalarning havo harorati pasayishi kuzatiladigan kuz-qish mavsumida ro‘y berayotganligini inobatga olib, ularni oldini olish hamda aholi orasida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

YUqoridagilardan kelib chiqib,

AHOLI OGHLANTIRILADI.

- qishgi isitish pechlari sozligi va tutun mo‘rilarini shahar va tuman yong‘indan saqlash bo‘limlari tomonidan tekshirtiring;



- gaz tarmoqlari va asboblarini tekshiruvdan o‘tkazing;

- gaz isitish pechlarining soz holda ishslashini muntazam ravishda nazorat qilib turing, tunda ularni o‘chirib qo‘yishni unutmang;

- xonada gaz hidini sezganda elektr asboblarini aslo yoqmang, yoqilgan bo‘lsa o‘chirmang, zudlik bilan eshik va derazalarni ochib, xonani shamollating va darxol “04” yoki “050” raqamlariga qo‘ng‘iroq qiling;



- gaz jihozlari (gaz plita, isitish pechlari) ustida yuvilgan kiyimlarni quritmang;



- bolalarni uyda yolg‘iz qoldirmang va ularni gaz asboblaridan foydalani-shiga yo‘l qo‘ymang, olov bilan o‘ynash xavfli ekanligini bolalariningizga uqtirib turishni unutmang;



- loyiha-smeta hujjatlariga asosan o‘rnatilgan gaz asboblarini joyini o‘zgartirmang;

- gaz so‘rgich moslamalaridan aslo foydalanmang;

- gaz isitish pechlari va tarmoqlarini o‘zboshimchalik bilan qoidaga xilof ravishda o‘rnatmang;

- nosoz gaz jihozlarini o‘zboshim-chalik bilan tuzatmang va ulardan foydalanmang;

- gaz sizib chiqqanida ochiq olov bilan tekshirmang;

